

Elmuratova Nafisa.

Oriental universiteti “ G’arb tillari” kafedrası o’qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada Mark Tven uning asarlarida leksik transformasiya va Uning o’ziga xos xususiyatlari to’g’risida fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar. *Semuel Lengxorn Klemens, leksik, konkretlashtirish, mumlashtirish, antonimik tarjima, o’shish, tushirib qoldirish, «Toblanganlar», «Yaltiroq asr».*

Asl ism-sharifi Semuel Lengxorn Klemens bo’lgan amerikalik yozuvchi, jahon adabiyotining yirik namoyandasi. O’spirinlik va yigitlik yillarida darbadarlikda kun kechirgan, turli kasblar bilan shug’ullanib, tirikchilik o’tkazgan, keyinchalik gazeta tahririyatlarida ishlagan. Folklor syujeti asosida yozilgan «Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrovchi qurbaqa» asari (1865)da soddadil amerikaliklarning hazil-mutoyibasi va hayoti tasvirlangan. 1867 yilda Yevropa va Falastin bo’ylab sayohat qilgan. «Chet ellardagi soddadil kishilar» (1869) yumoristik ocherklar, «Toblanganlar» (1872) ocherklar kitoblariga kirgan asarlar ana shu sayohatlar taassurotlari asosida maydonga kelgan.

«Zarhal asr» (1873, Ch. Uorner bilan hamkorlikda) romani moliyaviy-siyosiy korrupsiya haqida, «Yaltiroq asr» (1874) satirik romanida esa jamiyat illatlari hajv etiladi. Yumoristik va satirik yo’sinda yozilgan «Eski va yangi hikoyalar» (1875), «Tennesidagi jurnalistika» (1869), «Meni gubernatorlikka qanday saylashgani» (1870), «Qishloq xo’jaligi gazetasiga qanday muharrirlik qildim» (1870) singari to’plamlariga kirgan asarlarida Amerika xayotining turli qirralari tasvirlangan.

«Geklberri Finning boshidan kechirganlari» (1884) romanida amerikacha hayotning yetuk ijtimoiy tanqidi, muruvvat va iltifotning manfaatparastlik va shafqatsizlik bilan yonmayon mavjudligi ko’zga tashlansa, «Qirol Artur saroyidagi konnektikutlik yankilar» (1889) qissasida ijtimoiy qarama-qarshilik dunyosi krralanadi. «Missisipidagi eski davrlar» (1875), «Missisipidagi hayot» (1883) kitoblari, «Shahzoda va gado» (1882), «Ovsar Vilson» (1894), «Tom Soyey chet elda» (1894), «Tom Soyey — josus» (1897), «Sirli notanish odam» (1916) kabi roman va qissalar muallifi.

Yozuvchining 1895 yildagi jahon bo’ylab sayohati «Ekvator bo’ylab» (1897) kitobida, shuningdek, pamfletlar turkumi, shu jumladan «Qorong’ida o’tirgan odamga» (1901), «Harbiy ibodat» (1923 yilda nashr etilgan) asarlarida aks etgan.

Bolalarga atab yozilgan asarlari bolalar adabiyotining mumtoz namunalari sanaladi («Tom Soyeyning boshidan kechirganlari», 1876 va b.). «Tom Soyeyning boshidan kechirganlari» asari (A. Pirnazarov tarjiması) o’zbek tilida bir necha bor nashr etilgan. Shuningdek, «Geklberri Finning boshidan kechirganlari», «Hikoya va

pamfletlar» (1959), «Shahzoda va gado» (1962) va boshqa asarlari xam o‘zbek tiliga tarjima qilingan, maktab darsliklariga kiritilgan.

Tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lug‘atlar ma‘lum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq, odatda, lug‘atlarda so‘z ma‘nosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lug‘ati qanchalik mukammal bo‘lmasin, undaso‘zlarning barcha ma‘nolari yoki ma‘no nozikliklarini qamrab olishning ilo-

ji yo‘q, chunki lug‘at ikki til tizimi unsurlari bilan ish ko‘radi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, nutq mahsuli bo‘lmish matn muhimroqdir.

1.Tarjima jarayonida tarjimon ko‘p ma‘noli so‘zning qaysi ma‘nosi qo‘llanilganligini kontekst asosida o‘zi aniqlamog‘i, uni asliyatga yaqinroq chiqishini ta‘minlaydigan tarjima priyomlarini bilishi kerak. Shulardan biri transformatsiyadi. Tarjima nazariyasi va amaliyotida olimlarning transformatsiya tushunchasi haqidagi qarashlariniko‘rib chiqamiz:

L.S.Barxudarov transformatsiyaga ta‘rif berar ekan, uni biri ikkinchisining asosida kelib chiqqan til yoki nutq birliklarining o‘zaro munosabati deb ataydi.

2.Tarjimadagi transformatsiyaga esa tarjimada ekvivalentlik va adekvatlikni ta‘minlash uchun ishlatiladigan tillararo turli xil almashinishlarga aytiladi deb ta‘kidlagan va ularni quyidagi turlarini keltirib o‘tgan:

1) o‘rin almashtirish (gap tarkibidagi so‘z va so‘z birikmalarning yoki ergash gap componentlarining o‘rin almashishi);

2) almashtirish (so‘z shakllari, gap bo‘laklarini almashtirish, qo‘shma gaplardagi sintaktik almashinishlar, gaplarning qo‘shilib ketishi, konkretlashtirish, umumlashtirish, sababni natijasi bilan, aksincha, almashtirish, antonim tarjima, kompensatsiya);

3) qo‘shish;

4) tushirib qoldirish.

Yana bir olim V.N.Komissarov transformatsiyalarni quyidagi turlarga bo‘lgan:

1) leksik transformatsiyalar (transkripsiya, transliteratsiya, kalka usuli, leksik semantik almashtirishlar: konkretlashtirish, umumlashtirish va modulatsiya);

2) grammatik transformatsiyalar (so‘zma-so‘z tarjima, gaplarning qo‘shilib ketishi, grammatik almashtirishlar: so‘z shakllari, so‘z turkumlari, gap bo‘laklari);

3) kompleks (leksik-grammatik transformatsiyalar: antonim tarjima, eksplikatsiya (tasviriy tarjima), kompensatsiya).

Yuqorida olimlarning transformatsiyaga oid turli fikrlari bilan tanishib chiqdik. Shunday qilib, tarjimada turli so‘zma-so‘z, g‘alaz birikmalarni qo‘llashdan qochish, uning o‘rniga adabiy, hamma tushunadigan, yorqin so‘zlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Leksik transformatsiyalar tarjima nazariyasida so‘zlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Bunday transformatsiyalarning quyidagi turlari mavjud:

1. Konkretlashtirish.
2. Umumlashtirish.
3. Sababning natija bilan, natijaning sabab bilan almashtirilishi.
4. Antonimik tarjima.
5. Qo'shish.
6. Tushirib qoldirish.

Konkretlashtirish. Birinchi turdagi transformatsiyalar keng ma'noli yoki ma'nosini aniqlash qiyin

bo'lgan so'zlarni tarjima qilishda qo'llaniladi. Transformatsiyaning bu turi asliyat so'ziga aniqlik kiritish yoki uni konkretlashtirganda qo'llaniladi. Bu aksariyat hollarda ingliz tilidagi fe'llarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ishlatiladi. Ingliz tilidagi fe'llar, odatda, umumiy va noaniq ma'noda qo'llaniladi.

Bu, ayniqsa, tarjimada yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi fe'llar aniq va konkret ish-harakatni ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi "to take" ko'p ma'noli fe'lini tahlil qilib chiqaylik. Bu fe'lni tarjima qilish uchun kontekst, albatta, zarur bo'ladi, chunki uning ma'nolari bir-biriga bog'liq bo'lmagan jihatlari ham mavjud. Uni o'zbek tiliga "olmoq", "olib bormoq", "olib ketmoq", "olib qo'yimoq", "tortib olmoq", "tortmoq", "kerak bo'lmoq", "zarur bo'lmoq", "yutmoq", "yutib yubormoq", "o'lchamoq", "bichim olmoq", "yozmoq", "qayd qilib bormoq", "suratga olmoq" deb tarjima qilish mumkin.

Yuqorida qayd etib o'tilgan ma'nolarning ba'zilari ushbu fe'lning predlog bilan qo'llangan holatidagi tarjimasidir, ya'ni bu fe'l predlog bilan qo'llanilganda ma'no o'zgarib ketish xususiyatiga ega. Bunday fe'llar sirasiga "to be", "to have", "to make", "to become" va boshqa fe'llarni kiritish mumkin. Gap faqat ko'p ma'noli fe'lning umumiy emas, balki aniq ma'nosini tarjimada berish haqida borishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan "to be" fe'lini olsak, uning quyidagi xususiyatlarini aniqlash mumkin. Ingliz tilida fe'llar gapda bajaradigan vazifasiga ko'ra asosiy va yordamchi fe'llarga bo'linadi.

Morfologik transformatsiyalar, orfografik transformatsiya, leksikologik transformatsiya, sintaktik transformatsiya, punktiatsion transformatsiya. Misol uchun asardagi ushbu gapda leksikologik transformatsiyaga uchragan gaplarni ko'rib chiqishimiz mumkin. O'zbekcha: Egnilariga qizil, ko'k yashil movut va kimxob to'n kiyib qora qunduz telpak va bo'rklarini boshlariga bostirib olgan boshqa amirlar ham nag'al qo'qilgan etiklari bilan marmar zinalarni taq-taq bosib pastga tushib ketishdi. Inglizcha: They dressed in bright red, blue, green brocade clothes and covered with beaver fur hat on their heads in the dark, walked down the marble stairs. Izoh: Ushbu gapda Leksik transformatsiya usulidan foydalanilgan ya'ni bunda so'z tushirib qoldirish hodisasidan foydalanilgan. Bundan tashqari, leksemalarning sinonimlaridan foydalanilgani uchun so'z almashtirish hodisasidan ham foydalanilgan. Asar ichidagi

ushbu gapda esa transformatsiya turlariga kiruvchi orfografik transformatsiyani ko'rishimiz mumkin.

O'zbekcha:Ali Qushchi ustozga qaradi, u oldingidek emas ancha xavotirli yuzida g'am anduh aks etgandi.

Inglizcha:Ali Kushchi looked at him and tired to soothe him and he was anxiety.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>

2. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). Ta'lim fidoyilari, 18(5), 32-37.

3. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING —BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI(—THE TALES OF BEEDLE THE BARD) ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ:" СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II" (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>

4. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI"ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>